



TIIAME

Informatika va axborot tehnologiyalari fanidan

2-kurs 1semestr uchun

Elektron dars taqdimoti

Mavzu: Corel Draw vektorli grafik muharriri bilan tanishish

Tuzuvchi: Tadjibayeva M.X.





TIIAME

- 1.Corel Draw vektorli grafik muharrir imkoniyatlari Reja :**
- 2. CorelDraw dasturi interfeysi xaqida.**
- 3. Corel Draw dasturi da ishlash.**





Corel Draw vektorli grafik muharrir imkoniyatlari



TIIAME

CorelDraw vektorli grafikaning Windows amaliyot tizimida ishlaydiigan tahrirlovchi dasturlardir. Uning yordamida turli grafik ko'rinishlarni loyihalash, foto, matn, tasvirlar ustida, ayniqsa badiiy ko'rinishdagi kompozitsiyalarni tahrirlash bilan bog'liq amallarni bajarish mumkin.





Corel Draw vektorli grafik muharrir imkoniyatlari



TIIAME

- CorelDraw boshqa grafik muharrirlarga nisbatan matnlar bilan yaxshi ishlaydi, ya’ni nashriyot tizimlarida, masalan, humoristik yoki boshqacha kitoblarni har xil turli o’lchamdagi harflar bilan yozish mumkin
- CorelDraw muharirida fayllarning kengaytmasi file.cdr ko’rinishda bo’ladi.






Corel Draw muharrir oyna tuzilishi



ТПАМЕ





Oynaning ko`rinishi quyidagicha:



1. Sarlavha satri
2. Menyular satri
3. Standart uskunalar paneli
4. Xossalar paneli
5. Vertikal va gorizontal lineyka
6. Vertikal uskunalar paneli
7. Sahifalar boshqaruvchisi
8. Holat satri
9. Hujjat sahifasi
10. Belgilangan ob`ekt
11. Ishchi sahifa
12. Ish sohasi
13. Prokrutka
14. Ranglar palitrasи




Standart uskunalar paneli. Ushbu panel dasturning ajralmas qismi bo`lib, foydalanuvchi o`zining xohishiga ko`ra undagi panellar sonini kamaytirishi yoki oshirishi mumkin. Unda joylashgan tugmalar (buyruqlar) hujjatlarni yaratish, ochish, saqlash, import, eksport, chop etish, almashish buferi bilan ishlash, noto`g`ri bajarilgan amallardan voz kechish, import va eksport amallari, masshtabni o`zgartirish va boshqa bir qator imkoniyatlarni beradi.



Xossalar paneli. Dasturdagi ochiluvchi panel ya`ni xossalar paneli foydalanuvchiga dastur bilan ishlash mobaynida qator qulayliklar yaratadi. Panel buyruqlari tanlangan uskunaga bog`liq ravishda namoyon bo`ladi.




Sahifa ko`rinishini o`zgartirish. CorelDraw dasturida sahifa ko`rinishini o`zgartirish xossalari paneli orqali amalgalashiriladi. Odatda ochilgan yangi sahifani boshqa ko`rinishlarga o`zgartirish uchun sahifa ko`rinishini sozlash uchun mo`ljallangan xossalari panelidan foydalanamiz. Uning tuzilishi va vazifalari quyidagicha:



1. Sahifa parametrini o`zgartirish.
2. Sahifa o`lchamlari.
3. Sahifa holatini o`zgartirish .
4. Tanlangan holatni bitta sahifa uchun ishlatish.
5. Tanlangan holatni barcha sahifalar uchun ishlatish.
6. O`lchov birliklari.
7. Kursor bilan siljish.
8. Hujjat nusxasigacha masofa.
9. Qo`shimcha imkoniyatlar.

CorelDraw dasturining ish imkoniyatlari ko`p parametrli bo`lib, har bir parametr uning ko`rinishini o`zgartiradi va bir qancha imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, sahifa ko`rinishini boyitishda asosiy menyudan “Maket” menyusining “Fon stranisi” bandi imkoniyatlari orqali amalga oshiriladi.



- Fonsiz sahifa hosil qilish;
- Fon uchun rangdan foydalanish;
- Fon uchun boshqa dasturda yaratilgan ob`ektlardan foydalanish.



Ushbu buyruq tanlanganda pastidagi mavjud buyruqlar faolashadi. Ular orqali tanlangan ob`ektni joylashgan joyini ko`rish, o`lchamlarini o`zgartirish mumkin.

Ranglar palitrasи.

Asosiy oynaning o`ng qismida vertikal yo`nalishda palitra joylashgan bo`lib, kvadrat shaklidagi figuralar to`plamidan tashkil topgan. Palitrada illyustrasiya uchun mo`ljallangan ranglarni saqlash mumkin. Bu esa o`z navbatida ranglar kamalagi minimumini saqlash va ulardan o`z joyida foydalanish imkonyatini beradi. CorelDraw ranglar palitrasini o`zgartirish imkoniyatiga ham ega, ammo foydalanuvchi palitrani aniq bir qismlarini o`zgartirish imkoniyatiga ega emas. Palitradagi barcha ranglarni ko`rish uchun palitra panelining quyi qismida joylashgan kichik uchburchak belgisini tanlash lozim. Ranglar palitrasini tahrirlash bilan undan foydalanish jarayonida tanishib chiqiladi.



Holat qatori.



TIIAME

Holat qatori illyustrasiyaning ajratilgan ob`ektlari to`g`risida ma`lumotlarni aks ettiradi. CorelDraw interfeysining boshqa elementlari kabi uning konfigurasiyasini ham o`zgartirish mumkin. Foydalanuvchi o`zi holat qatorida qanday ma`lumotlar berilishini aniqlashi mumkin. Masalan:

Tanlangan uskuna to`g`risida qisqa ma`lumot;

Sichqoncha ko`rsatgichi koordinatalari;

Tanlangan ob`ekt haqida ma`lumot;


Transformasiyalash jarayonida ob`ektning geometrik o'lchamlari o`zgarishi va uning koordinatalari;

Tanlangan ob`ektning to`ldirish ranglari haqida ma`lumot;

Tanlangan ob`ektning atroflama chiziqlarining qalinligi va rangi haqidagi ma`lumot;



Corel Drawda tasvir yaratish




Corel Draw vektorli grafikada tasvir yaratish



TIAAME



Векторный подход



Графические примитивы



Rastrli va vektorli grafikada tasvir farqi





Corel Draw vektorli grafikada tasvir yaratish



TIIAME





Corel Draw vektorli grafikada tasvir yaratish



TIIAME

